Studies by international organizations, particularly the International Monetary Fund and the World Bank, indicate that the implementation of effective redistribution mechanisms is of crucial importance. In particular, increasing investment in education, healthcare, and social protection systems helps mitigate the adverse effects of income inequality and promotes inclusive economic growth. In conclusion, addressing income inequality is of strategic importance for ensuring long-term and sustainable development in emerging economies.

Key words: income inequality, economic growth, emerging economies, inclusive development, redistribution policy, social protection.

Аннотация. Страны с формирующейся рыночной экономикой, как правило, характеризуются значительными диспропорциями в распределении доходов. Несмотря на относительно высокие темпы экономического роста в данных странах, распределение богатства остается крайне неравномерным. В частности, значительная часть капитала сосредоточена у высокодоходных групп населения, тогда как доходы низкодоходных слоев растут более медленными темпами. Особенно ярко выражено различие между городскими и сельскими территориями, где более высокий уровень доходов в городах существенно ограничивает экономические возможности сельского населения.

Хотя глобализация и технологический прогресс выступают важными факторами экономического роста, их положительные эффекты в основном концентрируются среди высокодоходных и высококвалифицированных работников. В результате усиливается разрыв в квалификациях, а темпы роста доходов низкоквалифицированной рабочей силы замедляются. Одновременно недостаточное развитие систем социальной защиты еще больше углубляет неравенство доходов в обществе.

Исследования международных организаций, в частности Международного валютного фонда и Всемирного банка, свидетельствуют о важности внедрения эффективных механизмов перераспределения доходов. В частности, увеличение инвестиций в образование, здравоохранение и систему социальной защиты способствует смягчению негативных последствий неравенства доходов и содействует инклюзивному экономическому росту. В заключение следует отметить, что сокращение неравенства доходов имеет стратегическое значение для обеспечения долгосрочного и устойчивого развития развивающихся экономик.

Ключевые слова: неравенство доходов, экономический рост, развивающиеся экономики, инклюзивное развитие, политика перераспределения, социальная защита.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari va texnologik rivojlanishning tezlashuvi sharoitida daromadlar tengsizligi bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi tobora dolzarb ilmiy yo‘nalishga aylanmoqda. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun muhim bo‘lib, ularda daromadlar tengsizligi iqtisodiy tizimga turli yo‘llar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Daromadlar tengsizligi faqatgina ijtimoiy adolatsizlikning ko‘rinishi emas, balki u iste’mol darajasi, investitsiya jarayonlari hamda mehnat unumdorligining o‘sishiga ta’sir etuvchi muhim iqtisodiy omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Avvalo, daromadlar tengsizligining iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’siri ayniqsa rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlariga xos bo‘lib, u yerda bu holat yanada keskinroq namoyon bo‘ladi. Past daromadli qatlamlar uchun ta’lim olish va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarining yetarli emasligi inson kapitali to‘planishini cheklaydi, natijada esa bu omil uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1]. Shuningdek, daromadlar tengsizligining ortishi jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirib, boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi tafovutni yanada chuqurlashtiradi. Bunday jarayon siyosiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi va natijada iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini susaytiradi [2]. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlar daromadlar tengsizligi tug‘ilish darajasining ortishi bilan ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Tug‘ilishning yuqori bo‘lishi past daromadli oilalarning iqtisodiy yukini oshiradi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan kapital jamg‘arilish jarayonini zaiflashtirgan holda, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [3].

Biroq, muayyan sharoitlarda daromadlar tengsizligining o‘rtacha darajasi iqtisodiy faollik va dinamikani kuchaytirishi mumkin. Daromadlar tengsizligi shaxslar hamda korxonalarni iqtisodiyotda faolroq ishtirok etishga va boylik to‘plashga undovchi rag‘bat sifatida xizmat qilib, ishlab chiqarish investitsiyalarining ortishiga olib keladi. Ayniqsa, yuqori daromadga ega guruhlar odatda yuqori foyda keltiruvchi loyihalarga sarmoya kiritishga ko‘proq tayyor bo‘lib, bu iqtisodiyotga qo‘shimcha kapital oqimini ta’minlaydi [4]. Bunday investitsiyalar natijasida shakllanadigan kapital jamg‘arilishi ayrim tarmoqlarda, jumladan, infratuzilmani rivojlantirish, ko‘chmas mulk sohasi hamda yuqori talabga ega yo‘nalishlarda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishi mumkin [1].

Shunga qaramasdan, daromadlar tengsizligining salbiy ta’siri hanuz muhim darajada saqlanib qoladi. Yuqori daromadli qatlamning nisbatan kamligi va aholining katta qismining past daromadli guruhlarda jamlanishi umumiy iste’mol talabining yetarli darajada shakllanmasligiga sabab bo‘lib, bu holat iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini cheklashi mumkin [2]. Shu bilan birga, daromadlar tengsizligi ijtimoiy to‘siqlarning yuzaga kelishiga, jamiyatdagi birdamlikning zaiflashishiga hamda ijtimoiy beqarorlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, kapital jamg‘arilishi, ishchi kuchi o‘sishi, davlat xarajatlari va iste’mol kabi omillar iqtisodiy o‘sishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va nisbatan kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

Umuman olganda, daromadlar tengsizligi rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlarida murakkab va ikki yoqlama xususiyatga ega. O‘rtacha darajadagi tengsizlik investitsiyalar hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishi mumkin, biroq haddan tashqari yuqori tengsizlik iste’mol talabining qisqarishiga va jamiyat barqarorligining zaiflashishiga olib keladi. Shu bois, ta’lim, sog‘liqni saqlash hamda ijtimoiy himoya sohalariga investitsiyalarni

kengaytirishga qaratilgan samarali qayta taqsimlash siyosatlari daromadlar tengsizligining salbiy ta’sirini yumshatib, inklyuziv iqtisodiy o‘sishga zamin yaratadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Daromadlar tengsizligi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda yagona xulosa mavjud emas, biroq so‘nggi yillardagi tadqiqotlar ushbu munosabatning chiziqli emasligi, mamlakatning daromad darajasi, institutlar sifati va qayta taqsimlash siyosatiga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatmoqda. Fawaz, Rahnama va Valcarcel 2014-yilda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar misolida tengsizlik-o‘sish aloqasini aniqlashtirib, past va yuqori daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida mazkur bog‘liqlik bir xil emasligini asoslaydi. Ularning yondashuvi adabiyotdagi qarama-qarshi natijalar ko‘pincha bir xil chiziqli modeldan foydalanish oqibati ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot tengsizlikni iqtisodiy o‘sishga avtomatik ravishda salbiy yoki ijobiy ta’sir qiluvchi omil sifatida emas, balki muayyan makroiqtisodiy sharoitlarda turlicha ishlovchi ko‘p omilli hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ilgari suradi.

Bu nuqtayi nazar Chengfang Shen va Xindong Zhao tomonidan 2023-yilda yanada chuqurlashtirilgan. Ular dinamik panel threshold model asosida daromadlar tengsizligining iqtisodiy o‘sishga ta’siri mamlakatning daromad darajasiga qarab keskin farqlanishini ko‘rsatadi. Tadqiqotga ko‘ra, umumiy modelda tengsizlik o‘sishni cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi, biroq ayrim nazorat omillari kiritilganda bu ta’sirning kuchi o‘zgaradi. Eng muhimi, past daromad bosqichida tengsizlik iqtisodiy o‘sishni asosan inson kapitali, siyosiy barqarorlik va demografik omillar orqali susaytiradi. Bu esa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda tengsizlik masalasini faqat daromad taqsimoti muammosi sifatida emas, balki o‘sishning institutsional va ijtimoiy poydevoriga ta’sir etuvchi strukturaviy omil sifatida ko‘rish kerakligini anglatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida institutsional omillarning roli Chia, Law, Trinugroho, Wiwoho, Damayanti va Sergi tomonidan 2022-yilda e’lon qilingan tadqiqotda alohida ochib berilgan. Mualliflar 68 ta rivojlanayotgan mamlakat bo‘yicha PVAR modeli asosida shaffoflik, moliyaviy rivojlanish, daromadlar tengsizligi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi dinamik bog‘liqliklarni tahlil qiladi. Ularning xulosalari shuni ko‘rsatadiki, tengsizlik va o‘sish munosabatini institutlardan ajratib bo‘lmaydi; aksincha, davlat boshqaruvi sifati, axborot shaffofligi va moliyaviy tizimning rivojlanganlik darajasi ushbu aloqaning yo‘nalishi hamda kuchini sezilarli darajada belgilaydi. Bu yondashuv rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda inkluziv o‘sishga erishish uchun faqat qayta taqsimlash emas, balki sifatli boshqaruv institutlari ham zarurligini asoslaydi.

Saleem, Farooq va Aurmaghan 2021-yildagi tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlik va daromadlar tengsizligi iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Ular kapital shakllanishi, mehnat resurslari va davlat xarajatlari o‘sishni rag‘batlantirishi mumkinligini ko‘rsatgan holda, aynan tengsizlik va qashshoqlikning yuqori darajasi o‘sishning barqarorligini susaytirishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv daromadlar tengsizligi muammosini alohida emas, balki kambag‘allik, bandlik va investitsion muhit bilan o‘zaro bog‘liq tizimli hodisa sifatida ko‘rib chiqadi. Shuning uchun rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda tengsizlikni kamaytirish siyosati o‘sishga qarshi emas, aksincha, uning sifatini yaxshilovchi omil sifatida qaralishi mumkin.

Thomas Pikettyning kapital jamg‘arilishi va boylik konsentratsiyasi haqidagi nazariy qarashlari bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos yaratadi. Uning “Capital in the Twenty-First Century” asarida iqtisodiy o‘sish sur’ati kapital rentabelligidan past bo‘lgan sharoitda boylikning jamlanishi kuchayishi va bu uzoq muddatli tengsizlikni chuqurlashtirishi ta’kidlanadi. Mazkur konsepsiya rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun ham dolzarb bo‘lib, ayniqsa kapital bozorlari yetarlicha inklyuziv bo‘lmagan, mulk va aktivlarga egalik tor qatlamlarda to‘plangan jamiyatlarda iqtisodiy o‘sish natijalari keng aholi qatlamlariga teng taqsimlanmasligini tushuntiradi. Pikettyning yondashuvi tengsizlikni bozorning tasodifiy natijasi emas, balki kapitalizmning institutsional dinamikasi bilan bog‘liq barqaror tendensiya sifatida talqin qiladi.

Ostry, Berg va Tsangarides tomonidan 2014-yilda tayyorlangan IMF tadqiqoti adabiyotlarda juda muhim burilish yasagan ishlardan biridir. Ular yuqori tengsizlik nafaqat o‘sish sur’atiga, balki o‘sish davrining davomiyligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ushbu manbada qayta taqsimlash siyosatining o‘zi odatda o‘sishga zarar yetkazmaydi, degan xulosa ilgari suriladi. Bu natija uzoq vaqt davomida hukm surgan “tenglik va samaradorlik o‘rtasida muqarrar ziddiyat bor” degan qarashni qayta ko‘rib chiqishga asos bo‘lgan. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun bu xulosa ayniqsa muhim, chunki unda ijtimoiy siyosat va iqtisodiy o‘sish bir-biriga zid emasligi, aksincha, maqsadli qayta taqsimlash va inson kapitaliga investitsiyalar inkluziv o‘sishning sharti bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatiladi.

Blotevogel, Imamoglu, Moriyama va Sarr 2022-yilda daromadlar tengsizligini o‘lchash usullarining o‘zi tadqiqot natijalariga sezilarli ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Ular turli ko‘rsatkichlar, jumladan Gini koeffitsiyenti va yuqori daromad ulushlari asosida olib borilgan tahlillar bir xil xulosa bermasligini aniqlagan. Bu holat metodologik nuqtayi nazardan juda muhim, chunki rivojlanayotgan iqtisodiyotlar bo‘yicha tadqiqotlarda ishlatiladigan ma’lumotlar sifati va ko‘rsatkich tanlovi xulosalarning mazmunini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Demak, daromadlar tengsizligining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholashda faqat bitta indikatorga tayanish yetarli emas; bir nechta o‘lchovlar va uzatish kanallarini birgalikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jahon banki va Xalqaro valyuta fondining 2015/2016-yillardagi Global Monitoring Report hisobotida demografik o‘zgarishlar, inson kapitali, bandlik va inklyuziv rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatib beriladi. Ushbu hisobot daromadlar tengsizligi muammosini alohida iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida emas, balki demografik bosim, mehnat bozori sifati va ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yosh aholi ulushining yuqoriligi bir tomondan iqtisodiy o‘sish salohiyatini oshirsa, ikkinchi tomondan tengsizlik kuchli bo‘lsa, bu imkoniyatlar to‘liq ro‘yobga chiqmasligi mumkin. Shu sababli hisobot inkluziv institutlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimiga investitsiyalar hamda demografik dividenddan oqilona foydalanish zarurligini ta’kidlaydi.

OECDning 2025-yildagi “Government at a Glance” nashri bevosita tengsizlik-o‘sish modelini qurmasa-da, davlat boshqaruvi sifati, ishonch, xizmatlar samaradorligi va davlat institutlarining natijadorligi kabi omillarning iqtisodiy farovonlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadigan muhim institutsional asosni beradi. Daromadlar tengsizligi yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda davlat boshqaruvining sifati past bo‘lsa, qayta taqsimlash, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy mobillikni kuchaytirish siyosatlari samarasizlashadi. Shu ma’noda, OECD materiali tengsizlikning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tushunishda boshqaruv sifati va davlat salohiyati masalasini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Shu-Chen Changning 2015-yildagi tadqiqoti to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadlar tengsizligi haqida bo‘lmasa-da, u moliyaviy rivojlanish va daromad darajasining iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini threshold regression orqali baholaydi. Mazkur ish ushbu mavzu uchun metodologik ahamiyatga ega, chunki u iqtisodiy omillar ta’siri ko‘pincha chiziqli emasligini va turli daraja yoki bosqichlarda o‘zgarishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv tengsizlik va o‘sish munosabatini o‘rganishda ham qo‘l keladi: rivojlanayotgan mamlakatlarda tengsizlikning salbiy yoki ijobiy ta’siri ko‘p hollarda mamlakatning institutsional rivojlanishi, moliyaviy chuqurlashuvi va daromad bosqichiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, ko‘rib chiqilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda daromadlar tengsizligi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik oddiy va bir yo‘nalishli emas. Tadqiqotlarning bir qismi tengsizlikni kapital jamg‘arilishi va investitsiya uchun rag‘bat sifatida ko‘rsa, boshqa bir qismi uni inson kapitalining pasayishi, siyosiy beqarorlik, ijtimoiy ishonchning yemirilishi va kambag‘allikning chuqurlashuvi orqali o‘sishni cheklovchi omil sifatida izohlaydi. Eng asosli xulosa shuki, daromadlar tengsizligining iqtisodiy o‘sishga ta’siri mamlakatning daromad darajasi, institutsional sifati, shaffoflik, qayta taqsimlash siyosati va ishlatilgan metodologik yondashuvga bevosita bog‘liq. Aynan shu jihat mazkur maqolaning ilmiy mantiqiy asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma’lumotlar Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va OECD bazalaridan panel ko‘rinishda yig‘ildi. Daromadlar tengsizligi Gini koeffitsiyenti orqali, iqtisodiy o‘sish esa YaIM o‘sish sur’atlari orqali baholandi. Tahlilda panel regressiya, korrelyatsiya va threshold modellari qo‘llanilib, omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda ta’sir darajasi aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon bankining hisobotida qayd etilishicha, ko‘plab rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlarida daromadlar tengsizligi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Ushbu mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish nisbatan tez kechayotgan bo‘lsa-da, boylikning taqsimlanishi hanuz notekisligicha qolmoqda. Boy qatlam katta miqdordagi resurslarni o‘zida jamlagan, past daromadli aholining daromadlari esa sekin sur’atlarda oshib bormoqda, bu esa boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi tafovutning asta-sekin kengayishiga olib kelmoqda. Braziliya, Janubiy Afrika va Hindiston kabi davlatlarda boylikning asosiy qismi yuqori daromadli guruhlarda to‘planganligi sababli, oddiy aholining iqtisodiy farovonligida sezilarli yaxshilanishlar cheklangan darajada kuzatilmoqda. Ushbu mamlakatlarda qishloq va shahar hududlari o‘rtasidagi daromadlar farqi ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, Xitoy va Hindistonda shahar joylarida daromad darajasi qishloq hududlariga qaraganda ancha yuqoriligi bilan ajralib turadi. Urbanizatsiya iqtisodiy o‘sishni tezlashtirib, yangi ish o‘rinlarini yaratgan bo‘lsa-da, u shahar va qishloq o‘rtasidagi daromad tafovutini yanada chuqurlashtirgan. Qishloq aholisi ko‘pincha rivojlanish imkoniyatlaridan chetda qolib, daromadlarini oshirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari va texnologik taraqqiyot ham daromadlar tengsizligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, globallashuv ushbu davlatlarga ko‘proq investitsiyalar va eksport imkoniyatlarini jalb etib, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlamoqda. Boshqa tomondan esa, globallashuvdan keladigan foydaning katta qismi yuqori daromadli hamda yuqori malakali guruhlar qo‘lida to‘planib, past daromadli va past malakali ishchi kuchi ushbu

imkoniyatlardan yetarli darajada foydalana olmayapti. Shuningdek, texnologik taraqqiyot mehnat bozorida malaka tafovutini yanada kengaytirib, past malakali ishchilarning daromad o‘sish sur’atlarining sekinlashishiga olib kelmoqda.

Ko‘plab rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlarida ijtimoiy himoya tizimlari daromadlar tengsizligining salbiy ta’sirini samarali yumshatish uchun hali yetarli darajada rivojlanmagan. Ijtimoiy nafaqa va qo‘llab-quvvatlash choralarining yetarli emasligi past daromadli guruhlarning ijtimoiy yordam orqali iqtisodiy holatini yaxshilash imkoniyatlarini cheklab, boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi farqni yanada chuqurlashtirmoqda.

Umuman olganda, daromadlar tengsizligi rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari uchun dolzarb va jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu masalani hal etish boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi tafovutni bosqichma-bosqich qisqartirishga qaratilgan siyosiy islohotlar, shahar va qishloq hududlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish hamda ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu chora-tadbirlar rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning yanada barqaror va samarali rivojlanishiga zamin yaratadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etib, o‘rtacha yillik 6 foiz atrofida o‘sish qayd etilmoqda. Shu bilan birga, daromadlar taqsimotidagi tafovut ma’lum darajada saqlanib qolmoqda. Mamlakatimizda daromadlar tengsizligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan Jini koeffitsiyenti 2021-yildagi 0,31 darajadan 2025-yil yakuniga kelib 0,279 gacha pasaygan[1].

Mazkur holatni chuqurroq tahlil qilish O‘zbekistonda daromadlar tengsizligining bir qator o‘ziga xos jihatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, daromadlar o‘sishidagi farqlanish iqtisodiyotdagi turli qatlamlarning rivojlanish sur’atlarini aks ettiradi. 2024–2025-yillarda aholining umumiy daromadlari o‘sishda davom etgan bo‘lib, ushbu o‘sish turli daromad guruhlari o‘rtasida turlicha namoyon bo‘lgan. Xususan, yuqori daromadli qatlamlarda daromadlar tezroq oshgani iqtisodiy faollik va investitsiya imkoniyatlarining kengayganidan dalolat bersa, past daromadli guruhlarda ham barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Bu holat iqtisodiyotda bosqichma-bosqich muvozanatli rivojlanish jarayonlari kechayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, hududlararo farqlanish mamlakat ichidagi iqtisodiy salohiyat va rivojlanish imkoniyatlarining xilma-xilligini ifodalaydi. 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent shahrida jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 73,9 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu ko‘rsatkich 20,6 mln so‘m atrofida bo‘lgan. Bu esa hududlar o‘rtasida qariyb 3,6 barobar farq mavjudligini ko‘rsatadi va hududiy rivojlanishni yanada muvozanatlashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Sohaviy farqlanish ham iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq muhim omil hisoblanadi. 2025-yil holatiga ko‘ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliya va bank xizmatlari kabi yuqori qo‘shilgan qiymatli sohalarda ish haqi tez sur’atlarda oshib bormoqda. Bu esa innovatsion va zamonaviy tarmoqlarning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalarda ham bosqichma-bosqich ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda va ularning rivojlanishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar shakllanmoqda.

Bundan tashqari, shahar va qishloq hududlari o‘rtasidagi farqlanish iqtisodiy faollikning hududiy taqsimlanishi bilan bog‘liq. Urbanizatsiya jarayonlari davom etishi bilan shahar hududlarida daromadlar va ish imkoniyatlari tezroq o‘smoqda, bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, qishloq hududlarini rivojlantirish orqali ushbu tafovutni bosqichma-bosqich kamaytirish imkoniyatlari mavjud. Umuman olganda, mazkur omillar O‘zbekistonda daromadlar tizimining murakkab va ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Daromadlar farqlanishi iqtisodiy o‘sishga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi va u rag‘batlantiruvchi omil sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan faol qatlamlarda daromadlarning yuqori bo‘lishi investitsiya jarayonlarini jadallashtiradi hamda yangi biznes va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Iqtisodchi Pikettyning asariga ko‘ra, daromadlarning jamlanishi investitsiya imkoniyatlarini kengaytirib, kapital aylanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [5]. Bu holat iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali yo‘naltirilishiga, yangi loyihalarning amalga oshirilishiga hamda umumiy iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, daromadlar tizimidagi farqlanish jamiyatda iqtisodiy rag‘batni kuchaytirib, insonlarni yanada faol ishlashga, bilim va ko‘nikmalarini oshirishga undaydi hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir salbiy ta’siri shundan iboratki, yuqori daromadlar tengsizligi inson kapitalining cheklanishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi tafovutning kengayishi ta’lim va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlaridan teng bo‘lmagan foydalanishga sabab bo‘lib, past daromadli guruhlarning o‘z malakasini oshirish va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi, shuningdek, avlodlararo kambag‘allikning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Yaxshi ta’limga ega bo‘lmagan ishchi kuchi odatda mehnat bozoriga past ish haqi to‘lanadigan va past malakali ish o‘rinlariga kiradi, bu esa ularning

1 O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2.

iqtisodiyotga innovatsion turtki bera olish imkoniyatini cheklab, boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi tafovutni yanada kuchaytiradi. Shu tariqa, yuqori daromadlar tengsizligi nafaqat iste’mol hajmini kamaytiradi, balki inson kapitali shakllanishiga to‘sqinlik qilish orqali iqtisodiy o‘sishni ham cheklaydi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlariga ko‘ra, inson kapitalining bunday yo‘qotilishi mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ayniqsa rivojlanish bosqichidagi iqtisodiyot sharoitida mehnat sifatiga bo‘lgan talab tez sur’atlarda ortib bormoqda.

Shu bilan birga, daromadlar tengsizligi tug‘ilish darajasining ortishiga ham ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa past daromadli guruhlar orasida. Tug‘ilishning yuqori darajasi oilalar zimmasidagi iqtisodiy yukni oshirib, ularning iste’mol imkoniyatlari va investitsiya salohiyatini cheklaydi. Past daromadli oilalarda ulg‘ayayotgan bolalar ko‘pincha ta’lim resurslaridan yetarli darajada foydalana olmaydi, bu esa yangi avlodning kambag‘allikdan chiqish imkoniyatlarini kamaytiradi hamda iqtisodiy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tug‘ilish darajasining yuqoriligi demografik nomutanosibliklarga olib kelishi mumkin, ayniqsa iqtisodiy rivojlanish darajasi tez o‘sib borayotgan aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirishga yetarli bo‘lmagan sharoitda. Natijada resurslar tanqisligi va turmush darajasining pasayishi kabi muammolar yuzaga keladi. Ushbu omillarning yig‘indisi past daromadli qatlamlarning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shadigan hissasini cheklab, umumiy iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qiladi.

Boshqa tomondan, daromadlar tengsizligining o‘rtacha darajasi ma’lum ijobiy ta’sirlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Daromadlar o‘rtasidagi farq ayrim hollarda insonlarni ko‘proq daromad topishga intilishga, tadbirkorlik va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishga undaydi, bu esa iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Masalan, o‘rtacha darajadagi tengsizlik sharoitida daromad farqi odamlarni mehnat qilish, bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda yangilik yaratish orqali yuqori daromadga erishishga rag‘batlantiradi. Bu esa iqtisodiyotda faollik va dinamikaning ortishiga olib keladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu holat “rag‘batlantiruvchi ta’sir” sifatida qaralib, u insonlarning iqtisodiy faoliyatda faolroq ishtirok etishiga yordam beradi, natijada bozor samaradorligi oshadi va resurslar yanada oqilona taqsimlanadi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlariga ko‘ra, o‘rtacha darajadagi tengsizlik bozor iqtisodiyoti sharoitida rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lib, innovatsion fikrlovchi va tavakkal qilishga tayyor shaxslarni yanada samarali ishlashga undaydi hamda ularga yuqori daromad olish imkonini yaratadi.

Biroq, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlari shuni ham ko‘rsatadiki, daromadlar tengsizligi yuqori darajaga yetganda ushbu rag‘batlantiruvchi ta’sir yo‘qoladi. Haddan tashqari tengsizlik iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirishi mumkin. Shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining boshqa tadqiqotlariga ko‘ra, ortiqcha daromadlar tafovuti past daromadli qatlamlarda iqtisodiy tizimga nisbatan ishonchning pasayishiga olib kelib, ijtimoiy norozilik va siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi [6].

Blotevogel va hammualliflarining fikriga ko‘ra, daromadlar tengsizligining salbiy oqibatlarini oqilona qayta taqsimlash siyosati orqali, iqtisodiy o‘sishni cheklamagan holda yumshatish mumkin [7]. Xususan, davlat tomonidan ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni oshirish past daromadli guruhlarning turmush sharoitini yaxshilashga va ularning iqtisodiy faoliyatda faolroq ishtirok etishiga yordam beradi. Bunday siyosat nafaqat ularning xarid qobiliyatini oshiradi, balki jamiyat barqarorligi va inklyuzivligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Hukumat ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa davlat xizmatlariga ko‘proq mablag‘ ajratish orqali kam daromadli aholining hayot sharoitini yaxshilashi mumkin. Bu ularning iqtisodiy faoliyatda ishtirokini oshiradi. Natijada kam daromadli guruhlarning xarid qilish imkoniyati ortadi, jamiyat esa yanada barqaror va adolatli bo‘ladi.

Ta’limga ko‘proq sarmoya kiritish daromadlar tengsizligini kamaytirishning eng muhim yo‘llaridan biridir. Ta’lim kam daromadli aholining bilim va malakasini oshiradi, bu esa ularga yaxshi ish topish va yuqori daromad olish imkonini beradi. Shu orqali kambag‘allikning avloddan avlodga o‘tishi kamayadi. Sifatli ta’lim va teng ish imkoniyatlari jamiyatda adolatli va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlariga ko‘ra, daromadlarni qayta taqsimlash siyosatlari ijtimoiy tenglikni oshiradi va iqtisodiy islohotlarga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Shuningdek, bu siyosatlar haddan tashqari tengsizlik sababli yuzaga keladigan ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytiradi. Ayniqsa, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik sohalarida kam daromadli guruhlarni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan qarshilikni kamaytiradi. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, daromadlar tengsizligi jamiyatdagi o‘zaro ishonchni kamaytiradi va siyosiy barqarorlikni zaiflashtiradi. Natijada mamlakatda noaniqlik va beqarorlik kuchayishi mumkin [8]. Daromadlar tengsizligi jamiyatlarni beqarorlashtirishi mumkin, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda. Ijtimoiy ishonchning pasayishi iqtisodiy islohotlarning amalga oshishini qiyinlashtiradi va iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi. Bundan tashqari, tengsizlik siyosiy noaniqlikni kuchaytiradi. Bu esa xorijiy investorlarning ishonchini kamaytirib, iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir qiladi.

Globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida daromadlar tengsizligi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim muammoga aylangan. Globallashuv iqtisodiy o‘sishni tezlashtirgan bo‘lsa-da, uning foydasi asosan yuqori daromadli va yuqori malakali guruhlarga to‘plangan, bu esa tengsizlikni kuchaytirgan. Shu sababli

daromadlarni oqilona qayta taqsimlash siyosati juda muhim. Rivojlanayotgan mamlakatlar ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirishi kerak. Boy va kambag'al o'rtasidagi farqni kamaytirish hamda davlat investitsiyalarini infratuzilma va xizmatlarga oshirish iqtisodiy samaradorlikni yaxshilaydi, bozor talabini kuchaytiradi va barqaror iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Umuman olganda, daromadlar tengsizligini kamaytirish rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy barqarorligi uchun juda muhim. Oqilona qayta taqsimlash siyosatlari orqali kam daromadli guruhlar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ish imkoniyatlarini yaxshilash mumkin. Bu tengsizlikning salbiy ta'sirini kamaytiradi hamda iste'mol va bozor faolligini oshiradi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, mo'tadil qayta taqsimlash iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilmaydi, aksincha ijtimoiy barqarorlikni va iqtisodiy inklyuzivlikni kuchaytiradi. Shuning uchun davlatlar iqtisodiy siyosatda tengsizlikning ijobiy va salbiy tomonlarini muvozanatlashtirib, adolat va samaradorlik o'rtasida to'g'ri balans topishi kerak. Bu uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish uchun muhim asos bo'ladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlarida qayd etilishicha, boylikning yuqori darajada jamlanishi, ya'ni daromadlar tengsizligi investitsiya imkoniyatlarini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, yuqori daromadga ega shaxslar o'z mablag'larini ishlab chiqarish (real) sektoriga yo'naltirishdan ko'ra, past xavfli moliyaviy aktivlarga joylashtirishga ko'proq moyillik bildiradi [9]. Ushbu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlarida iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, iste'mol va investitsiya jarayonlari nuqtayi nazaridan, past daromadli guruhlarda iste'molga moyillik yuqori daromadli guruhlarga nisbatan odatda yuqoriroq bo'lishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotdagi umumiy iste'mol talabining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [10]. Bundan tashqari, daromadlar tengsizligi investitsiyalarning oz sonli badavlat guruhlar qo'lida jamlanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmining qisqarishiga sabab bo'lib, natijada uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bu holat rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari uchun jiddiy xavf tug'diradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelgusida barqaror rivojlanishga erishish uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari siyosatlarini yanada takomillashtirishi, shuningdek, resurslarning shahar va qishloq hududlari hamda turli daromad guruhlari o'rtasida muvozanatli taqsimlanishini ta'minlashi zarur. Qishloq hududlari va past daromadli qatlamlarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, shuningdek, ta'lim va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish inson kapitalini oshirishga xizmat qiladi va natijada iqtisodiyotning ichki (endogen) rivojlanish salohiyatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, hukumat siyosatlarning shaffofligini oshirishi hamda ijtimoiy xizmatlar tizimini yanada takomillashtirishi zarur, bu esa daromadlarni qayta taqsimlashga nisbatan jamoatchilik ishonchini kuchaytiradi hamda iqtisodiyot va jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar orqali daromadlar tengsizligi bosqichma-bosqich qisqaradi va yanada muvozanatli hamda farovon iqtisodiyot shakllanishi uchun mustahkam asos yaratiladi.

Mamlakatimizda daromadlar tengsizligi masalasi barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim strategik yo'nalishlardan biridir. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tafovutining mavjudligi iqtisodiy o'sishni ma'lum darajada rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, uning haddan tashqari kuchayishi ichki talabning zaiflashuvi, ijtimoiy mobillikning cheklanishi hamda hududlararo nomutanosibliklarning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida daromadlarni adolatli taqsimlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini yanada rivojlantirish orqali aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, qishloq hududlarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kasbiy malaka oshirish dasturlarini kengaytirish orqali mehnat bozorining samaradorligi oshiriladi va aholi daromadlari barqarorlashadi. Davlat boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash esa aholining ishonchini mustahkamlab, iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, daromadlar tengsizligini bosqichma-bosqich kamaytirish O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlash va uzoq muddatli farovonlikka erishish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fawaz, F., Rahnama, M., & Valcarcel, V. J. (2014). A refinement of the relationship between economic growth and income inequality. Applied Economics, 46(27), 3351–3361. https://doi.org/10.1080/00036846.2014.929624
2. Chengfang Shen & Xindong Zhao (2023) How does income inequality affects economic growth at different income levels?, Economic Research-Ekonomska Istraživanja, 36:1, 864-884, DOI: 10.1080/1331677X.2022.2080742

3. Chia, Poh San & Law, Siong Hook & Trinugroho, Irwan & Wiwoho, Jamal & Damayanti, Sylviana Maya & Sergi, Bruno S., 2022. "Dynamic linkages among transparency, income inequality and economic growth in developing countries: Evidence from panel vector autoregressive (PVAR) model", Research in International Business and Finance, Elsevier, vol. 60(C).
4. Saleem, H. ., Farooq, F. ., & Aurmaghan, M. . . (2021). How do Poverty and Income Inequality affect Economic Growth in Developing Countries?. Review of Applied Management and Social Sciences, 4(2), 547-558. https://doi.org/10.47067/ramss.v4i2.155
5. Piketty, T. (2017). Capital in the Twenty-First century. Harvard University Press.
6. Ostry, J., Berg, A. & Tsangarides, C. (2014). Redistribution, Inequality, and Growth. IMF Staff Discussion Note 14/02. Washington, D.C.: International Monetary Fund. https://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2014/sdn1402.pdf
7. Blotevogel, R., Imamoglu, E., Moriyama, K., & Sarr, B. (2022). Income inequality measures and economic growth channels. Journal of Macroeconomics, 72, 103413.
8. "World Bank; International Monetary Fund. 2016. Global Monitoring Report 2015/2016: Development Goals in an Era of Demographic Change. © World Bank. http://hdl.handle.net/10986/22547 License: CC BY 3.0 IGO." https://doi.org/10.1596/978-1-4648-0669-8.
9. OECD (2025), Government at a Glance 2025, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/0efd0bcd-en.
10. Shu-Chen Chang. (2015). Effects of financial developments and income on energy consumption. International Review of Economics & Finance. Volume 35, January 2015, Pages 28-44. https://doi.org/10.1016/j.iref.2014.08.011

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 4

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz